

**MORPHOLOGICAL INDICATORS OF SCHIZOTHORAX EURYSTOMUS IN
CHIRCHIQ RIVER****Olmosova Zuhra Makhmud's daughter****Kuvatov Askar Karakulovich****Abstract**

The article presents the results of a study of the morphological parameters of the common marinka (*Schizothorax curvifrons* McClelland, 1842) from the Chirchik River.

Keywords: Water, river, fish, systematics, morphology, collection, *Schizothorax curvifrons*.

**МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЗНАКИ SCHIZOTHORAX EURYSTOMUS В РЕКЕ
ЧИРЧИК****Олмосова Зухра Махмуд дочи****Куватов Аскар Каракулович****Аннотация**

В статье представлены результаты изучения морфологических показателей обыкновенной маринки (*Schizothorax curvifrons* McClelland, 1842) из реки Чирчик.

Ключевые слова: Вода, река, рыба, систематика, морфология, коллекция, *Schizothorax curvifrons*.

**CHIRCHIQ DARYOSIDAGI QORABALIQLNING (SCHIZOTHORAX
EURYSTOMUS) MORFOLOGIK KO'RSATKICHLARI****Olmosova Zuxra Maxmud qizi****Quvatov Asqar Qoraqulovich****Annotatsiya**

Maqolada Chirchiq daryosidan oddiy marinka (*Schizothorax curvifrons* McClelland, 1842) ning morfologik parametrlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Suv, daryo, baliq, sistematika, morfologiya, kolleksiya, *Schizothorax curvifrons*.

Kirish: Qorabaliq (*Schizothorax curvifrons* McClelland, 1842) Markaziy Osiyoning tog' va tog'oldi suv havzalarida keng tarqalgan baliqlardan biri hisoblanadi [2,5,14].

Maqolada Chirchiq daryosidagi qorabaliqning morfologik xususiyatlarini o'rganiSh bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalari keltirilgan. Material sifatida 2018 yil bahor oyida Chirchiq daryosi o'rta oqimidan ovlangan va Zoologiya instituti Ixtiologiya kolleksiyasida 4% formalinda saqlanayotgan, tanasining uzunligi 18,6-30,8 sm va og'irligi 100-371 g bo'lgan 12 ekz. qorabaliqdan foydalanildi. Bunda baliqlarning 25 plastik va 5 meristik belgilari ustida o'lchash-hisoblash ishlari umumiy qabul qilingan metod [6] asosida amalga oShirilib tahlil qilindi.

Materialga statistik ishlov berishda belgilarning o'rtacha ko'rsatkichi (M), uning xatoligi (m), o'rtacha kvadratik cheklanish (u) va variatsiya koeffisienti (Cv%) hisoblab chiqildi [3]. Barcha hisoblaSh ishlari kompyuterda MS Excel ma'lumotlarni tahlil qilish tizimida olib borildi.

Maqolada belgilarning qabul qilingan lotincha qisqartma nomlanishi quyidagicha keltirilgan: l – baliq tanasining uzunligi, sm; c – bosh uzunligi; ao – tumshuq uzunligi; o – ko'z diametri; po – ko'z orti qismi; hc – bosh balandligi; io – peshona kengligi; H – tananing balandligi; h – dum o'qining balandligi; aD – antedorsal masofa; pD – postdorsal masofa; lca – dum o'qining uzunligi; lD – elka suzgichi asosining uzunligi; hD – elka suzgichi balandligi; lA – anal suzgichi asosining uzunligi; hA – anal suzgichi balandligi; lP – ko'krak suzgichi uzunligi; lV – qorin suzgichi uzunligi; PV – ko'krak va qorin suzgichi oralig'idagi masofa; VA – qorin va anal suzgichi oralig'idagi masofa.

Asosiy qism: Biz olib borgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra Chirchiq daryosidagi qorabaliq quyidagi meristik belgilariga egaligi aniqlandi: elka suzgichidagi Shulalar soni III 8-9 ta, ko'krak suzgichidagi Shulalar soni I 15-17 ta, qorin suzgichidagi Shulalar soni I 8-9 ta, yon chizig'idagi tangachalar soni 89-95 ta, jabra ustunchalarining soni esa 12-18 ta.

Chirchiq daryosidagi qorabaliqning morfometrik belgilari 1-jadvalda keltirilgan.

Chirchiq daryosidagi qorabaliqning morfometrik belgilarining variatsiya koeffisienti 1,7-16,7 foizgacha (o'rtacha 6,60%) tebranib turadi. Shundan, (tana uzunligiga nisbatan olinganda), ko'z diametri yuqori o'zgaruvchan (16,7%) belgi ekanligi, po, h, pD, hD, lA, hA o'rtacha o'zgaruvchan, qolgan belgilar esa kam o'zgaruvchanlikka ega ekanligi aniqlandi. Bosh uzunligiga nisbatan olingan belgilarning barchasi, peshona kengligidan taShqari, yuqori o'zgaruvchanlikni namoyon qildi.

U.T.Mirzaevning [4] ma'lumotlariga ko'ra qorabaliqning plastik belgilarining o'zgaruvchanligi baliqning yoShi bilan bog'liqdir. Qorabaliqning yoshining oshishi va tana uzunligining ortib boriShi bilan tana balandligi, postdorsal masofa, ko'krak va qorin suzgichi oralig'idagi masofa, peshona kengligi ko'rsatkichlari oshib boradi va aksincha baliq boShining uzunligi va balandligi, ko'z diametri, juft suzgichlarning uzunligi, elka suzgichi asosining uzunligi kabi belgilarning ko'rsatkichlari kamayadi [4].

1-jadval Chirchiq daryosidagi qorabaliqning morfometrik belgilari

Belgilari	Lim (n=25)	M ± m	σ	Sv %
l, sm	18,0-30,8	211,2 ± 11,9	41,2	19,5
Tana uzunligiga nisbatan foiz hisobida, (l)				
c	20,1-24,8	21,5 ± 0,38	1,33	6,2
ao	7,6-9,3	8,42 ± 0,15	0,52	6,1
o	3,0-5,1	4,16 ± 0,19	0,69	16,7
po	10,5-13,2	11,4 ± 0,25	0,87	7,6
hc	13,8-16,3	14,8 ± 0,19	0,69	4,6
io	7,1-8,9	8,15 ± 0,13	0,46	5,7
H	20,6-23,7	21,9 ± 0,35	1,21	5,5
h	10,2-13,2	11,6 ± 0,24	0,86	7,4
aD	46,7-49,9	48,0 ± 0,24	0,84	1,7
pD	37,0-45,6	41,4 ± 0,89	3,10	7,5
lca	20,2-21,8	21,0 ± 0,14	0,51	2,4
ID	11,5-14,6	13,6 ± 0,25	0,89	6,5
hD	15,1-20,1	18,8 ± 0,50	1,75	9,3
lA	6,5-9,0	7,56 ± 0,20	0,71	9,4
hA	14,1-19,1	17,6 ± 0,38	1,35	7,6
IP	17,0-20,2	18,4 ± 0,31	1,09	5,9
IV	14,4-17,9	16,9 ± 0,29	1,02	6,0
PV	26,1-29,1	27,9 ± 0,25	0,86	3,1
VA	20,9-26,0	23,2 ± 0,46	1,62	6,9
BoSh uzunligiga nisbatan foiz hisobida, (c)				
ao/c	30,6-45,2	39,3 ± 1,13	3,92	9,9
o/c	14,2-23,5	19,1 ± 0,85	2,94	15,4
po/c	42,3-65,0	53,5 ± 1,75	6,08	11,3
hc/c	59,2-76,8	69,2 ± 1,60	5,54	8,0
io/c	33,8-42,3	37,9 ± 0,73	2,54	6,6

Shunday qilib Chirchiq daryosidagi qorabaliqning morfometrik belgilari 1,7-16,7 foizgacha o'zgaruvchanlikka ega bo'lib, bu o'zgaruvchanlik adabiyotlarda [1,4] keltirilgan qorabaliqning turiga xos bo'lgan morfometrik belgilar ko'rsatkichi doirasidan tashqariga chiqmasligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amanov A.A., 1985. Ekologiya ryb vodoemov yuga Uzbekistana i sopredel'nykh respublik. – TaShkent: Fan. 160 s.
2. Berg L.S. Ryby presnykh vod SSSR i sopredel'nykh stran. – M.-L.: Izd. AN SSSR, 1949. CH.3. – 1331 s.
3. Lakin G.F., 1990. Biometriya: Uchebnoe posobie dlya biol. spes. vuzov. 4-e izd. – M.: VysSh. Shk. 352 s.

4. Mirzaev U.T. Morfologiya i ekologiya obyknovennoy marinki Schizothorax intermedius Ms Clelland (Cyprinidae) vodoemov yuga Uzbekistana // Uzbekskiy biologicheskiy jurnal. 1998. №. 6. – S. 38-41.
5. Nikol'skiy G.V., 1938. Рыбы Таджикистана. – М.-Л.: Изд. АН СССР. 228 с.
6. Pravdin I.F., 1966. Rukovodstvo po izucheniyu ryb. 4-e izd. М.: Пищевая промышленность. 376 с.

